



## KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR IZOHLI LUG'ATINING O'QUVCHI RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Xusanova Gulruxsor To'lqin qizi  
*tadqiqotchi,*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning dunyoqarashini o'stirish, so'z boyligini orttirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish jarayonida izohli lug'atlarning hamiyati , uning bola rivojlanishidagi o'rni , rasmiy izohli lug'atlarning kichik maktab yoshidagi bolalarning o'quv faoliyatiga ta'siri va undan foydalanishning ahamiyati haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** lug'at, izohli lug'at, ruhiy rivojlanish, mustaqil fikrlash, so'z zaxirasi.

### Kirish

Kichik maktab yoshidagi bolalarni har tomonlama rivojlanishi, barkamol avlod bo'lib yetishishida uning nutqi boy va benuqson bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Bolaning nutqi bilan birga, tafakkuri , dunyoqarashi ham shakllanadi, rivojlanadi. Bolal nutqining rivojlanish jarayoni o'z vaqtida to'g'ri shakllantirilsa, yetarli sharoit va muhit yaratilsa, bolaning har tomonlama yetuk bo'lib o'sishiga zamin hozirlanadi.


Bolaning ruhiy rivojlanishi — ijtimoiy moslashuv jarayonida, tafakkurining o'sishida uning nutq juda muhim rol o'ynaydi. Nutqi ravon so'z boyligi ko'p bolalarda yoshligidayoq mustaqil fikrlash, o'z jamoasida fikrini himoya qila olish, mulohaza yuritish qobiliyati shakllansa, nutqida kamchiligi bo'lgan yoki so'z zaxirasi oz bolalarda, tortinchoqlik, fikrini erkin bayon qila olmaslik kabi sifatlar rivojlanadi va bu yaqqol namoyon bo'ladi. Bolalar nutqi ijtimoiy hodisa sifatida kattalar nutqi asosida rivojlanadi bu tabiiy hodisa . Bola rivojlanishiga irsiyat, tashqi muhit bevosita ta'sir o'tkazadi. Zero , Beruniyning fikricha insonning shakllanishida uchta : irsiyat, muhit va tarbiya omillari muhim sanaladi.Tabiiyki, kichik maktab yoshidagi bolalarda nutqiy aloqani tarbiyalashda o'qituvchi va ota-onalarning roli benihoya kattadir. Va shu o'rinda ta'lim jarayonida o'qituvchi va ota-onalar o'rtasidagi aloqalar va munosabatlar ta'lim sifatiga va shu bilan birga bola tarbiyasiga juda katta ta'sir etishini ta'kidlash o'rinni deb bilamanki, zero ta'lim va tarbiyada ikki tomonlama hamkorlik rivojlanishning va yetuklik sari qo'yilgan qadamning debochasi sanaladi. , Bolalarning nutqiy va aqliy salohiyatni o'stirish, so'z boyligini oshirish maqsadidasida tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiya ishlari to'g'ri tashkil qilinayotganini bolaning kattalar tomonidan o'qib yoki aytib berilgan jumla, ertak va hikoyalar ma'nosini anglashi, ularni amalda qo'llay olishi, turli qiyin vaziyatlarda kattalar yordamisiz muammolarni hal etishga urinishi, aqliy rivojlanishi, fikrlash qobiliyatining ortishi, o'zini-o'zi nazorat qila olishida ko'rishimiz mumkin. Holbuki, bu jarayon kattalar — tarbiyachi va pedagoglardan alohida ko'nikma va mahoratni, maxsus zaruriy ta'limiy vositalar, qo'llanmalarni va asosiysi bolaga berilayotgan e'tiborni talab etadi. Maktabgacha va





kichik maktab yoshdagi bolalarning nutqiy savodxonligini oshirishda lug'atlarning o'rni muhimligi jahon tajribasida isbotlangan. Lug'atlar bilan ishlashda o'quvchi nafaqat chet tilini o'rganishi, balki o'z ona tilidan foydalana olish qobiliyatini rivojlantirishi, shuningdek, so'zlarni o'z o'rnida ishlatish, tinglab tushunish, o'qib-o'rganganlarini amalda qo'llash, so'zlarni o'rnida ishlatish,) kompetensiyalarini shakllantirishda ham muhim ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Dunyoningning bir qancha rivojlangan davlatlarida so'zlarning ma'no-mazmunini chuqurroq o'rganish maqasdida maktabgacha ta'lidan oliv ta'limgacha bo'lgan bo'g'inlar uchun leksikografiyaning maxsus lug'atlar yaratish nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanuvchi alohida o'quv lug'atchiligi tarmog'i shakllangan va unda maktabgacha yoshdagi bolalar uchun lug'atlar ishlab chiqish tarmog'i nihoyatda rivojlangan Bilamizki, bola, asosan, 5—7 yoshgacha bo'lgan davrda o'zida katta hajmdagi so'z zaxirasini to'ldiradi. Tabiat bilan tanishadi, atrof-muhitni o'rganadi, tevarak-atrofga erkin nazar tashlaydi, ongida olamning so'z manzarasi chizadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun aratilgan lug'atlar ana shu psixologik, fiziologik, intellektual tomondan bolaga munosib ko'makchi bo'la oladi. Shuni aytishimiz kerakki, bu yoshdagi o'quvchilarning barchasi ham lug'atni mustaqil o'qish imkoniyatiga ega bo'lmaydi, ammo tarbiyachilar, o'qituvchilar, ota-onalar yordamida qiziqarli rasmlar va izohlar bilan tanishtirilsa, o'rgatilsa ko'zlagan maqsadga erisha olamiz. Kichik maktab yoshidagi bolalar izohli lug'atini yaratishda albatta bolaning ruhiy holati, uning dunyoqarashi, psixologiyasi muhim hisoblanadi. Yaratilayotagan lug'atlarda so'z tanlash, va ularni izohlashda jahon leksikografiyasidagi o'quv lug'atlariga qo'yilgan talablarga mos holda bolaning ruhiyati, yoshi, dunyoqarashidan kelib chiqilishi muhim hisoblanadi. Lug'atdan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida unga qo'shimcha topshiriqlar, analitik-sintetik mashqlar, savollar, berilishi bir jihatdan bunday lug'atlarning lug'at-qo'llanma deb atalishiga ham asos bo'ladi. Bunday lug'atlar bolani o'ziga jalg qilishi bilan birgalikda unga olam-olam ma'lumotni ham tortiq qiladi. Bolalar izohli lug'atlarining rasmi va topshiriqli bo'lishi esa olingan ma'lumotlarning puxtaligini va ta'lim sifatini ham oshirishga yordam beradi. Quyida rasmi izohli lug'tlarning ayrim ko'rinishini keltirib o'tamiz va bu orqali bola nimalarga ega bo'la olishini muhokama qilamiz.

**Qanshar**-burunning ikki qosh o'rtasidagi yuqori qismi. *Qanshariga ko'zoynak taqib olibdi.*



**Og'iz** - ustki va pastki jag' orasidagi til, tish, tanglay joylashgan bo'shliq. *Nasiba og'zini chayqadi.*





**Irmoq** - daryoga borib quyiluvchi ariq, jilg'a. *Uning suvlari toshib irmoqqa aylanibti.*




**Xokandoz**- o'choqdan olov, kul kabilami olish, tashish uchun ishlataladigan dastali asbob; olovkurak. *Nasiba xokandozda axlatlarni olib qo'ydi..*



Bunday rasmli-izohli lug'atlar maktabgacha va kichik mактаб yoshdagи bolalarni xalqimizning boy madaniy , ma'naviy, tarixiy merosi, milliy qadriyatlariga sodiq, ma'naviy-axloqiy barkamol qilib tarbiyalash hamda so'z zaxirasini boyitish, o'z fikrini erkin bayon qilish, mustaqil fikrlash, to'g'ri va ravon o'qish va gapirish ko'nikmasini o'stirish maqsadlarini birlashtiradi. Rasmlи lug'atlardan foydalanish o'quvchi tasavvur olamini kengaytiradi narsa, buyum haqida aniq ma'lumot olishini ta'minlaydi. Bunday rasmlи, izohli lug'atlar o'zining yo'rquin va bir ko'rishda tushunulishi oson bo'lgan tasviriy ifodalari bilan o'quvchilarni o'ziga jalb etadi . Bu esa bolani kitobga , kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini orttiradi. Rasmlи izohli lug'atlar va boshqa turdagи o'quv lug'atlar o'quvchilarning keying bilim olish yo'llarida poydevor bo'lib xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh.Mirziyoyev "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni Toshkent shahri, 2017-yil 29-noyabr
2. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
3. Khusanova Gulrukhsor Tulkin kizi" VERBAL CALCULATION AND MENTAL ARITHMETIC IN PRIMARY SCHOOL" Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 1-11 (2021) 34-36.
4. Xusanova G.T, Sultonova R.A; Kretiv pedagogikaning eng muhim jihatlari va yutuqlari; Yangilanayotgan O'zbekistonda fan, ta'lim va innovatsiya uyg'unligi; Noyabr I, 2020. 348-352





5. Xusanova G. T. Qiziqarli matematik tryuk. Ta'lim tizimida innovatsion islohotlar: olimlar va yoshlar nigohida. 2020
6. Xusanova Gulruxsor To'lqin qizi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematika fanini mental arifmetika orqali o'rgatish. Студенческий вестник 39(137), 82-87
7. Sultonova Robiyaxon Akramjonovna ,Xusanova Gulruxsor To'lqin qizi «BOSHLANG'ICH TA'LIMDAGI INNOVATSION TEXNOLOGIYALARING TA'LIM SAMARADORLIGIGA TA'SIRI»«ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI BEKE». Выпуск №21 (том 4) (декабрь, 2021). Дата выхода в свет: 31.12.2021. 672-676.

